



SPORTNING KOMPYUTER O'YINLARDAGI TARBIYAVIY AHAMYATI.

Ro'zikulov Ravshan Raximovich

Samarqand davlat chet tillar instituti assistent o'qituvchisi

Isroilova Mohigul Baxodir qizi

Samarqand davlat chet tillar instituti assistent o'qituvchisi

ravshanruzikulov0@gmail.com

Annatatsiya: *Kompyuterlashtirilgan va axborotlashtirilgan zamonda bolalarning ta'lif tarbiya olishi ularni barkamol avlod bo'lib yetishishida sportning o'rni.*

Kalit sozlar: *Kiber sport, ta'lif -tarbiya, texnologiya, psixologiya, virtual olam, vizuval, elektron, kompyuter.*

"Bizni hamisha o'yantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan"¹⁷

Shavkat Mirziyoyev

Har tomonlama yetuk, barkamol shaxsni tarbiyalash hozirgi kun ta'lif tizimi oldidagi dolzarb muammolardan biridir. Barkamol shaxsni tarbiyalashda u dunyoga kelganidan boshlab, to maktabgacha tarbiya yoshigacha bo'lgan davrdagi psixologik xususiyatlarini bilish tarbiyachilar, pedagoglar va psixologlar, ota-onalar uchun muhim ahamiyatga ega.

Kibersport (*Esport - elektron sport deb ham ataladi*) [video o'yinlardan](#) foydalangan holda raqobat shaklidir. Kibersportlar ko'pincha uyushgan, ko'p o'yinchili videoo'yin musobaqalari shaklida bo'ladi, ayniqsa professional o'yinchilar o'rtasida, yakka tartibda yoki jamoa bo'lib uyuştiriladi. Uyuştirilgan musobaqalar uzoq vaqt dan beri video o'yinlar madaniyatining bir qismi bo'lib kelgan bo'lsa-da, ular asosan havaskorlar o'rtasida 2000-yillarning oxirigacha, professional geymerlar va tomoshabinlarning ushbu tadbirlarda jonli translyatsiya orqali ishtirok etishi mashhurlikning katta o'sishiga olib keldi. 2010-yillarga kelib, kibersport video o'yinlar sanoatida muhim omil bo'lib, ko'plab o'yin ishlab chiquvchilari turnirlar va boshqa tadbirlarni faol ravishda loyihalashtirib, mablag' bilan ta'minladilar.

Raqobatbardosh videoo'yinlarni sport sifatida belgilash munozarali mavzudir. Kibersport tez o'sib borayotgan "noan'anaviy sport" bo'lib, "ehtiyyotkorlik bilan rejalashtirish, aniq vaqt va mohirlik bilan bajarish"ni talab qiladi, deb ta'kidlaydilar.

¹⁷ <https://www.standart.uz/news/view?id=963>



Boshqalar, sport jismoniy tayyorgarlik va jismoniy tayyorgarlikni o'z ichiga oladi, deb da've qiladi va kibersportni aqliy sport sifatida tasniflashni afzal ko'radi. Videoo'yinlar o'ziga qaram qilishi haqidagi xavotirlarga qaramay, [Xitoy](#) 2003-yilda kibersportni haqiqiy sport sifatida tan olgan birinchi davlatlardan biri edi. Bundan tashqari, 2019-yil boshiga kelib, Xitoy esport o'yinchilarini [Inson resurslari va ijtimoiy xavfsizlik vazirligining](#) kasb-hunar mahoratini sinovdan o'tkazish boshqarmasi tavsiyalari doirasida rasmiy kasb sifatida tan oldi. 2019-yil iyul oyiga kelib, 100 000 dan ortiq odam o'zlarini professional o'yinchi sifatida ro'yxatdan o'tkazdi va vazirlik besh yil ichida ushbu kasbda 2 milliondan ortiq bunday odamlarni kutayotganini aytdi.

2017-yilda [O'zbekiston kibersport assotsiasiyasi](#) tashkil etilgan. U [Rossiya kompyuter sporti federasiyası](#), [Asian E-Sport Federation](#) va boshqalar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yan. O'zbekistonda kibersport rasman alohida sport turiga aylandi.¹⁸ 2018-yilgi Osiyo o'yinlari doirasida eSports sport musobaqalari ham o'tkazildi. Musobaqa tashkilotchisi hisoblangan AESF (Asian Electronic Sports Federation) tarkibida 45 ta Osiyo mamlakatlari federatsiyalari orasida O'zbekiston elektron kompyuter sporti Federatsiyasi ham bor.¹⁹

O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi 15-avgust kuni O'zbekistondagi rasmiy sport turlari ro'yxatiga 100033001 kod ostida yangi — Elektron kompyuter sport turini kiritdi.

Kibersport turlarini yanada rivojlantirish va keng ommalashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining, 16.11.2022 yildagi PQ-423-son qarorida o'z aksini topgan.

Shu o'rinda innovatsion texnologiyalar ijtimoiy jarayonlarning ishlashi uchun asoslardan biri, shuningdek, ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik sharti sifatida ishlaydi. Axborot maydoni global tarmoq orqali inson imkoniyatlarini kengaytirib, geografik va siyosiy chegaralarni engib o'tishga, jahon madaniy qadriyatlarini hamma uchun ochiq bo'lishiga, inson hayoti sohasini "vizuallashtirishga" imkon beradi. Axborot oqimlarining tarqalish tezligi odamlarning ijtimoiy hayoti jarayonlarini to'liq raqamlashtirish va ta'limning o'sishiga olib keladi. Madaniy paradigmalarning o'zgarishi bizning ko'z o'ngimizda real vaqt rejimida sodir bo'ladi. Yagona zamonaliviy raqamli madaniyatni belgilovchi asosiy hodisalarga shaxsiy kompyuter va raqamli qurilmalarning barcha turlari kiradi:

Internet;

Sun'iy intellekt;

Tizimli va amaliy dasturlar;

Kompyuter grafikasi va virtual reallik tizimlari;

An'anaviy aloqa vositalarining raqamli formatlari (kitoblar, fotosuratlar, audio va video yozuvlar, raqamli televideenie va boshqalar);

¹⁸ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Kibersport>

¹⁹ <https://www.spot.uz/oz/2018/09/05/infocom/>



Innovatsiya - muayyan shaxs uchun yangi bo'lgan g'oya; - vositalar (yangi usul). Innovatsion jarayon - tizimning yangi sifat holatiga o'tish muvaffaqiyatini ta'minlaydigan innovatsiyalar va shartlar.

Innovatsiya - innovatsion jarayonning mazmun tomoni (ilmiy g'oyalar va ularni amalgalashish yangi avlodga eng yaqin ta'lim tizimi uchun dolzarb vazifalarni, bizningcha, an'anaviy Yevropa qadriyatlarini saqlash va tarjima qilish bilan bog'liq vazifalarni juda aniq belgilab beradi.²⁰ Endi bola tarbiyasi uning internet tarmoqlardan to'g'ri foydalanish, tarbiyalovchi dasturlar bilan ularni ham ruhan ham jismonan barkamol bo'lishi uchun ota-onalar hissasi juda muhim rol o'ynaydi. Har bir yoshdag'i bola o'zining harakteri, qobilyati, psixologik o'zgarishlari mavjud. Hozirgi vaqtida aksariyat ota-onalar bolalarga tinchlanib o'tirishi uchun qo'liga smartfon, telefon aparatlarni berib qo'yib bolada salbiy oqibatlarning rivojlanishiga turki bo'lmoqda. O'spirin bolalarga to'g'ri yondashilgan tarbiya esa ijobjiy ta'sirini ko'rsatadi. Kompyuter oldida soatlab o'tirgan farzandingiz psixologiyasi o'zgarishi, asabiy holatga kelib, ko'zlar xiralashib, sog'ligi yamonlashish holati kuzatilishi mumkin. Oila-bolani o'rabi turgan ijtimoiy muhitning eng muhim bo'g'inidir. Uning bola shaxsi shakllanishiga ko'rsatadigan ta'siri benihoya kattadir. Bolaning mustaqilligi nisbiy bo'lib, u ko'p jihatdan kattalar qaramog'i va yordamiga muhtoj bo'ladi. Ota-onaning fikri va munosabati bu davrda shunchalik katta undovchi kuchga ega bo'ladiki, u xulq-atvorning regulyatori va psixik rivojlanishning stimulyatori bo'lib xizmat qiladi.²¹ Ota-onalar nazorati telefonlarda mavjud. Faqatgina qo'shimcha ilovalarni o'rnatish kerak, xolos. Bola internet tarmog'ida noto'gri foydalanayotgani ota-onsa bilishi va unga cheklov qo'yishi mumkin. Buning uchun kompyuter texnologiyasi orqali qo'shimcha ilovalar o'rnatilib, bolani kompyuter va telefon qurilmalar bilan bog'lansa bola qayerga boryapdi, qaysi internet tarmog'idan foydalanayapdi, kuzatib turilib unga cheklovlar qo'yilsa to'gri foydalangan bo'lardi. Ta'limda psixologik tayyoragarlik deganda, bolaning obyektiv va subyektiv jihatdan maktab talabiga munosibligi nazarda tutiladi. U maktab ta'limiga avval psixologik jihatdan tayyorlanadi. Binobarin, uning psixikasi bilim olishiga yetarli darajada rivojlanadi. Shu yoshdag'i bola idrokining o'tkirligi, ravshanligi, sofligi, aniqligi, qiziquvchanligi, ishonuvchanligi, dilkashligi, hayolining yorqinligi, xotirasining kuchliligi, tafakkurining o'tkirligi bilan boshqa yoshdag'i bolalardan ajralib turadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 16.11.2022 yildagi PQ-423-son.

²⁰ U.M.Xalikova. Maktabgacha ta'limda pedagogik jarayonlarni loyihalashtirish. metodikasi. O'quv qo'llanma. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi "FAN VA TA'LIM" nashriyoti 2022. 216 b.

²¹ Z. Nishanova, G. Alimova. Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. -T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006. 160 b



2. U.M.Xalikova. Maktabgacha ta'limda pedagogik jarayonlarni loyihalashtirish. metodikasi. O'quv qo'llanma. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi "FAN VA TA'LIM" nashriyoti 2022.
3. Z. Nishanova, G. Alimova. Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi. o'quv qo'llanma. -T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006.
4. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Kibersport>
5. <https://www.spot.uz/oz/2018/09/05/infocom/>